

KORRUPSIYANING KELIB CHIQISH ILDIZLARI VA UNING SABABLARI

Saydolimova Feruza Sultonxo'ja qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoyat qonunchiligini qo'llash nazariyasi
va amaliyoti soha mutaxassisligi" magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8027232>

Annotatsiya :Maqolada korrupsiyaning o'zi nima ekanligi uning tarixiy ildizi kelib chiqish sabablari turlari hamda xalqaro huquqda korrupsiya tushunchasi milliy va xorijiy qonunchilik asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlari: korrupsiya korrupsiyaga oid qilmish, pora, pora oluvchi

Korrupsiyaning tarixiy ildizlari juda qadimga borib taqalib, bu hol qabilada ma'lum mavqega ega bo'lish uchun qabila sardorlariga sovg'alar berish odatidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. O'sha davrlarda bu normal holat sifatida qabul qilingan. Biroq davlat apparatining murakkablashuvi va markaziydashuvi korrupsiyaning davlat rivojlanishiga katta to'siq ekanligini ko'rsatdi. Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi Shumer davlati tan olinadi. Qadimgi davlatlarni ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan manbaalardan ma'lum.

Chunki, bu holat davlatning obro'siga juda qattiq putur yetkazardi. Dunyoning yetakchi dinlarida ham birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq qoralanadi. Jumaladan, Injilda "Sovg'alarni qabul qilma, chunki sovg'a ko'rni ko'radigan qiladi va haqiqatni o'zgartiradi" deyilgan bo'lsa, Qur'oni Karimda "Boshqalarning mulkini nohaq yo'l bilan olmangiz va boshqalarga tegishli bo'lgan narsalarni olish uchun o'z mulkingizdan hokimlaringizga pora qilib uzatmangizlar" deyilgan.

XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib jamiyat davlat boshqaruv apparatining ish sifatiga toboro ko'proq ta'sir ko'rsata boshladi. Bu o'sha davrda qabul qilingan bir qator qonun hujjatlarida o'z aksini topgan. Jumladan, 1787-yilda qabul qilingan AQSH Konstitutsiyasida pora olish AQSH prezidentini impechmentga tortish mumkin bo'lgan ikki jinoyatning biri sifatida ko'rsatib o'tilgan. Siyosiy partiyalarning vujudga kelishi va ularning mamlakat hayotidagi o'rnining oshib borishi XIX-XX asrlarda rivojlangan davlatlarda korrupsiyaning dunyoning boshqa mamlakatlariga nisbatan ancha kamayishiga olib keldi.

Endi masalaning asl mohiyatiga qaraydigan bo'lsak, korrupsiyaga oid jinoyatlar tushunchasiga ta'rif berishdan oldin "korrupsiya" atamasining mazmunini tushunib olish lozim bo'ladi. Bugungi kunda "korrupsiya" tushunchasining barcha elementlarini to'liq qamrab olgan ta'rifni uchratish mushkul. Jinoyat huquqi nazariyasida mazkur atamaga nisbatan berilgan ta'riflarni, shartli ravishda, keng va tor ma'nolardagi yondashuvlar sifatida ikki turga ajratishimiz mumkin

Birinchi turdagi yondashuvga misol qilib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1978-yil 17- dekabrda qabul qilingan "Huquqni muhofaza qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining yurish-turish kodeksi"ni ko'rsatishimiz mumkin. Mazkur hujjatning 7-moddasi "b" bandiga asosan, korrupsiya – bu "mansabdor shaxsning har qanday shakldagi manfaat evaziga o'z mansab vakolatlari doirasida mazkur manfaatni taqdim etuvchi shaxs foydasini ko'zlab sodir etgan harakati yoki harakatsizligi" tushuniladi¹.

¹ Кодекс поведения должностных лиц по поддержанию правопорядка (Принят резолюцией 34/169 Генеральной Ассамблеи ООН от 17 декабря 1979 года) // [Электрон манба]. URL: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/code_of_conduct.shtml

Yevropa Kengashi tomonidan 1999 -yilda qabul qilingan korrupsiya uchun fuqaroviy-huquqiy javobgarlik to'g'risidagi konvensiyada korrupsiyaga "pora oluvchidan talab qilinadigan majburiyatlar va yurish-turish qoidalarini bajarishdan og'dirishga qaratilgan har qanday afzalliklarni bevosita va bilvosita berish, qabul qilish, taklif qilish yoki so'rashdan iborat harakatlar" sifatida ta'rif beriladi².

Aksariyat xalqaro-huquqiy hujjatlarda, milliy va xorijiy mamlakatlar huquqshunoslarining asarlarida "korrupsiya" tushunchasiga nisbatan keng yondashuvga guvoh bo'lishimiz mumkin. Mazkur yondashuvga ko'ra, korrupsiya sifatida, nafaqat poraxo'rlik, balki mansab vakolatidan foydalangan holda noqonuniy naf olishga qaratilgan har qanday faoliyat tushuniladi. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasida "korrupsiya" tushunchasiga nisbatan bevosita ta'rif bermasada, korrupsiyaning turlari sifatida bir qator jinoyatlar ro'yxatini o'zida aks ettirgan.

Korrupsiya turlariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, turli manbaalarda turlicha tasniflanganini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, professor Humail Faro'q korrupsiyani quyidagicha ta'sniflagan³.

Katta korrupsiya

Kichik korrupsiya

Siyosiy korrupsiya


Katta korrupsiya: bu yuqori darajadagi hokimiyatni suiiste'mol qilish ko'pchilikning ozgina xarajatlariga foyda keltiradi. Bu shaxsga ham, jamiyatga ham katta zarar yetkazadi. Bu korrupsiya hukumatning eng yuqori darajalarida yuzaga keladi va bu iqtisodiy tizimlar va siyosiy huquqiy tizimlarni sezilarli darajada buzishni talab qiladigan tarzda olib keladi.

Kichik korrupsiya: bu davlat amaldorlarining oddiy fuqarolar bilan o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Siyosiy korrupsiya: bu o'z hokimiyatini, mavqeini va boyligini saqlab qolish uchun o'z lavozimini suiiste'mol qiladigan siyosiy qaror qabul qiluvchilar tomonidan siyosat, institutlar va tartib qoidalarini manipulyatsiya qilishdir. Bu demokratiya darajasining pastligi va siyosiy shaffoflikning pastligi bilan bog'liq.

² Конвенция о гражданско-правовой ответственности за коррупцию (Страсбург, 4 ноября 1999 года)// [Электрон манба]. URL: <https://www.coe.int/ru/web/conventions/full-list/-/conventions/rms/090000168007f58c>

³News Article On Classification And Effects of CORRUPTION News Covered by Humail Faroq <https://medium.com/@humail0034/news-article-on-classification-and-effects-of-corruption-f25a6d850dd1>Medium (<https://medium.com/@humail0034/news-article-on-classification-and-effects-of-corruption-f25a6d850dd1>)



Professor Robert Klitgaardning “Korrupsiya formulasi”

$K=Я+Б-Ж$

Я – yakkahokimlik

Б - boshqaruv sifati

Ж – javobgarlik

Yuqoridagi chizmada professor Robert Klitgaardning korrupsiya formulasini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu korrupsiya turlari yuqorida tarifini bergan kichik (epizodik) katta (tizimli) va siyosiy (kleptokratik) korrupsiyaning ilmiy tildagi ko‘rinishi sifatida piramida shaklida tasvirlanganini ko‘rishimiz mumkin.

Xo‘sh, o‘zi korrupsiyani qanday omillar keltirib chiqaradi, korrupsiya uchun javobgarlikni keltirib chiqaradigan qanday huquqiy asoslar mavjud degan savollarga javob berishimiz lozim.

Korrupsiya ijtimoiy xavfli qilmish sanalib, davlat boshqaruvi tartibiga qarshi ijtimoiy xavfi yuqori jinoyatlardan biri hisoblanadi. Korrupsiyaning ijtimoiy xavfliligi, aybning mavjudligi, huquqqa xilofligi jazoga sazovorligi uning jinoyat ekanligini istisno qilmaydi.

Birinchidan, korrupsiyaga oid jinoyatlar tegishli vakolatga ega bo‘lgan shaxslar tomonidagina emas, balki bunday g‘ayriqonuniy xatti-harakatlar natijasida naf ko‘rayotgan boshqa shaxslarning qilmishlarini ham nazarda tutadi.

Ikkinchidan, mazkur turdagi jinoyatlar o‘ziga topshirilgan vakolatlarning qonunga xilof ravishda va g‘arazli niyatlarda suiiste‘mol qilinishi orqali sodir etiladi.

Uchinchidan, korrupsiyaviy jinoyatlardan olinadigan foyda moddiy va nomoddiy ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin.

To‘rtinchidan, bu turdagi qilmishlar faqatgina uni sodir etayotgan shaxsning o‘z manfaatlarini ko‘zlab emas, balki boshqa shaxslar manfaati yo‘lida ham sodir etiladi⁴.

⁴ Шамсутдинов Б.С. Коррупциявий жиноятлар учун жавобгарлик. Монография // Масъул мухаррир: Д.Б.Базарова, ю.ф.н., профессор в.б. – Т.: Тошкент давлат юридик университети, 2020. – 120 бет.

Demak, xulosa qilib aytadigan bo'lsak, korrupsiya ma'lum bir vakolatga ega bo'lgan shaxslar tomonidan, turli xil g'arazli niyatlarda o'zga shaxslarning yoki o'zining manfaatlarini ko'zlab, moddiy yoki nomoddiy foyda olish ilinjida sodir etiladigan qilmish korrupsiya hisoblanadi

References:

1. Кодекс поведения должностных лиц по поддержанию правопорядка (Принят резолюцией 34/169 Генеральной Ассамблеи ООН от 17 декабря 1979 года) // [Электрон манба]. URL: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/code_of_conduct.shtml.
2. Конвенция о гражданско-правовой ответственности за коррупцию (Страсбург, 4 ноября 1999 года)// [Электрон манба]. URL: <https://www.coe.int/ru/web/conventions/full-list/-/conventions/rms/090000168007f58c>.
3. News Article On Classification And Effects of CORRUPTION News Covered by Humail Farooq <https://medium.com/@humail0034/news-article-on-classification-and-effects-of-corruption-f25a6d850dd1> Medium (https://medium.com/@humail0034/news-article-on-classification-and-effects-of-corruption-f25a6d850dd1).
4. Шамсутдинов Б.С. Коррупциявий жиноятлар учун жавобгарлик. Монография // Масъул муҳаррир: Д.Б.Базарова, ю.ф.н., профессор в.б. – Т.: Тошкент давлат юридик университети, 2020. – 120 бет.